

XORAZMIY VA XO'JANDIY NOMALARINING BADIY TAHLILI**Qo'sinboyeva Janona**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich
magistranti 998945780610 Quysinboyevaj@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimiz tarixi ravnaqi uchun o'z ijodi bilan alohida o'ringa ega bo'lgan va keyingi davr ijodkorlar ijodiga ta'sirini ko'rsatgan, nomanavis ijodkorlar asarlaridan namunalar keltirilgan. Ushbu asarlarni badiiy jihatdan ochib berish xususiyatlari tahlil etilgan. Bundan tashqari ijodkorlar ijodida mavzu va g'oya jihatdan esa adabiy an'anani saqlagan holda o'z asarlarida mazmunli tarzda yoritib berishga harakat qilingan o'rinlardi kuzatish mumkin. Bundan tashqari mumtoz adabiyotimizda katta ahamiyatga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Xorazmiyni "Muhabbatnoma", Xo'jandiyni "Latofatnoma", Yusuf Amiriyni "Dahnoma"¹ va shu kabi ijodkorlar asarlari tahlil etilgan. Bundan tashqari keyingi davrda yashab ijod qilgan Atoiy ijodining ba'zi o'rinlarda mavzu va g'oya jihatdan yaqinligi va farqli jihatlarini ko'rib o'tish mumkin. Bu kabi mumtoz adabiyotimizning serqirra ijodkorlari o'rtasidagi davr jihatdan yaqinligi, ma'lum bir mavzu va janr doirasida ijod qilganligi haqida fikr va mulohazalar tahlilga keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Muhabbatnoma, Latofatnoma, Dahnoma, mumtoz, badiiyat, noma, janr, g'azal, qit'a, fard, masnaviy, asar,

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛАНИЙ ХОРЕЗМИ И ХУДЖАНДИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются работы авторов классической литературы, которые сыграли важную роль в развитии нашей литературной традиции, занимая особое место в истории литературы и оказав влияние на творчество последующих писателей. Приводятся примеры произведений анонимных авторов с анализом их художественных особенностей. Также наблюдается, что, сохраняя литературные традиции, эти авторы стремились раскрывать содержание и идеи своих произведений осмысленным образом. Среди таких значимых фигур классической литературы анализируются произведения Хорезмийца "Муhabбатнома", Ходжанди "Латофатнома", Юсуфа Амирия "Дахнома" и других. Кроме того, рассматриваются тематическая и идеологическая близость, а также различия в произведениях более поздних авторов, таких как Атоий, который писал в последующие эпохи. В статье также исследуются сходства между разными классическими авторами разных периодов, анализируются темы и жанры, которые они затрагивали, и проводится сравнительный анализ их литературных вкладов.

Ключевые слова: *Муhabбатнома, Латофатнома, Дахнома*, классическое, эстетика, анонимный, жанр, газель, кита, фард, маснави, произведение.

ARTISTIC ANALYSIS OF THE APOSTLES OF KHWARIZMI AND KHUJANDI

Abstract: This article highlights the works of classical literature figures who have had a significant impact on the development of our literary history, with their creations holding a unique place in the literary tradition and influencing subsequent generations of authors. The

¹ Муборак м... (Тошкент: 1987 й.)

works of anonymous creators have been presented, with a detailed analysis of their artistic features. Additionally, it has been observed that, while maintaining literary traditions, these authors attempted to address the content and ideas in a meaningful way in their works. Among these influential figures in classical literature, one can find an in-depth analysis of the works of Khwarazmian's "*Muhabbatnoma*", Khujandi's "*Latofatnoma*", Yusuf Amiri's "*Dahnoma*", and others. Moreover, the article discusses the thematic and ideological proximity, as well as the differences, in the works of later authors such as Atoiy, who wrote during the later periods. The article further explores the proximity between the diverse classical authors of different periods, analyzing the themes and genres they addressed and comparing their literary contributions.

Keywords: *Muhabbatnoma*, *Latofatnoma*, *Dahnoma*, classical, aesthetics, anonymous, genre, ghazal, qita, fard, masnavi, work.

Mumtoz adabiyotimizda ko'plab ijodkorlar ijodi va hayoti bilan yaqindan tanishar ekanmiz, avvalambor turkiy adabiyotning rivoji uchun ijod qilib, yanada boyishi va rivojlanishida o'z hissasini qo'shib kelgan ijodkorlar mumtoz adabiyotimizda juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu esa turkiy adabiyotda janrlar ko'lamining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri sifatida bugungi kunga qadar o'rganilib kelinmoqda².

Bu kabi masalalar bo'yicha olimlar qarashlariga tayanadigan bo'lsak avvalambor adabiyotni "chamanzor"ga qiyos qiladilar. "Bu bo'stonda esa bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan shoir va yozuvchilar avlodi qayta-qayta bo'y cho'zaveradi" - deya ta'kidlashadi. Haqiqatdan ham adabiyot bo'stonini o'ziga xos yozish uslubi, betakror badiiy san'at namunalari bilan boyitgan ijodkorlar juda ko'plab bo'lib, bulardan Xorazmiy ijodi mumtoz adabiyotimizda alohida o'ringa egaligini ko'rib o'tish mumkin. Uning nomanavislikka qo'shgan hissasi va keyingi nomanavislar uchun dastur yaratganligi o'z davrining turkiy tilda ijod qilgan eng ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biri sifatida e'tirof etish o'rinlidir. Chunki uning *Muhabbatnoma* asari ta'sirida keyingi noma janrida yozilgan asarlar ko'lamini kengayishi va turkiy adabiyotning gullab yashnashiga sabab bo'lgan ijodkorlardan biridir.

Xo'jandiy o'zining "*Latofatnoma*" asari bilan Xorazmiy asos solgan nomachilik an'anasini davom ettirdi. "*Latofatnoma*" garchi "*Muhabbatnoma*"ga javob tarzida yozilgan bo'lsa-da, undan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, Xorazmiy "*Muhabbatnoma*"sida biz g'azal, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarni uchratishimiz mumkin. Xo'jandiyning asari esa to'lig'icha masnaviyda bitilgan. Albatta, Xo'jandiyning "*Latofatnoma*"si Xorazmiyning badiiy mahsulidan oziqlangan holda vujudga kelganini ta'kidlagan holda, boshqa asarlar bilan solishtirib, asarning o'ziga xos qirralari haqida yaqindan ko'rib o'tish mumkin. Bunda Xorazmiy "*Muhabbatnoma*"sining "Bayoni voqe'in ayur" qismida shunday satrlar keltirilgan:

*Ko'ngil bahrinda ko'p gavharlaring bor.
Ochunda porsida daftarlaring bor*³.

Bu satrlarda ko'ngil daryoga qiyos qilinmoqda. Unda bebaho gavharlar ya'ni ma'nodor so'zlar ko'p ekanligi ta'kidlanmoqda. Xo'jandiy "*Latofatnoma*"sida esa:

*Tafakkur bahriga botdim hijobsiz,
Chiqardim dur-u gavhar hisobsiz*⁴.

- deya keltirib o'tgan.

² Muminova D. Nomanavislik an'anasi va turkiy she'riyatda lirik janrlar taraqqiyoti (XIV-XV asrlar she'riyati misolida Samarqand. 2023: 55).

³ (Хоразмий. Муҳаббатнома. – Тошкент: 1959: 42).

⁴ Муборак м., (Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент: 1987: 44).

Xorazmiy “Muhabbatnoma”sida esa:

*Agar ming yil tirilsa Xotami Toy,
Aning otin eshitgach yerlar o'pgay⁵.*

- deya Muhammad Xo'jabek haqida fikr yuritilgan. Xo'jandiy “Latofatnoma”sida ham shunday ulug'lash, maqtash kabi jumalarni uchratish mumkin.

*Saxovat bobida chun Xotami Toy,
Shijoat mulkida chun Kovusi Kay⁶.*

- deya talmeh badiiy san'atidan unumli va mazmunli foydalangan holatda juda chiroyli va ayni vaqtda yakdil xulosa berilganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xorazmiy ijodiga yana murojaat qiladigan bo'lsak:

*Agar desam seni Rustam yarorsen,
Qiliching birla saflarni yorarsen⁷,*

- deya Muhammad Xo'jabekni afsonaviy qahramon Rustamga qiyos qilib, uning madhini aytgan bo'lsa, Xo'jandiy o'z asarida Sulton Mahmudni ham Rustamga qiyos qilib, an'anaga ergashadi:

*Qiliching haybatidan Rustami zol,
Qilibdur dunyoga dur ichra inzol⁸.*

“Latofatnoma”da Sulton Mahmud madh qilinar ekan, uning yuzini ko'rib Quyosh ham toqat keltira olmay yerga qulab tushgani haqida aytiladi:

Yani:

*Quyosh yuzing ko'rib yerga yiqildi,
Adog'ing tuprog'ini surma qildi⁹.*

Bu kabi o'xshatishlarni boshqa asarlarda ham kuzatishimiz mumkin. Sayfi Saroiyning “Suhayl va Guldursun” dostonida esa “Suhaylning chohda yotmishi” qismida shunday satrlar bor:

*Gunash dunyo yuzindan chohga botdi,
Uzilgan gul tegin tuproqda yotdi¹⁰.*

Yuqoridagi har ikki baytda ham mubolag'a badiiy san'atining g'uluv turidan foydalanilgan bo'lib, bu orqali ijodkor aytmoqchi bo'lgan fikrning naqadar muhimligi va betakrorligi uqtirilganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xo'jandiy “Latofatnoma”sida:

*So'z aytmoq siz bikin dono qotinda,
Quduq qazmoq yerur daryo qotinda¹¹.*

- deyilgan, ya'ni Sulton Mahmud juda dono bo'lganiga ishora qilgan holda unga qarata “Sizday dononing oldida so'z aytmoq go'yo daryo yonida quduq qazimoqg'a o'xshaydi”, demoqda.

Bundan tashqari noma janrida Xorazmiy va Xo'jandiy ijodiga izdoshlik qilgan ijodkorlardan yana biri Yusuf Amiriyning “Dahnoma”sida esa farqli jumalarni ko'rib o'tadigan bo'lsak, bunda suv yoqasidagi odamga suvni sovg'a qilib, evaziga tilla olgan kishi hikoyasi keltirilgan¹².

Xo'jandiy “Latofatnoma”sida esa yorni go'zalligi va uning husnidan hattoki gul g'uncha bo'lganligi hamda yorning og'zi kichikligi, gulning g'unchasi kabi o'xshatish tasviri haqida shunday satrlar mavjud:

⁵ O'sha asar. 45-b.

⁶ O'sha asar. 45-b.

⁷ O'sha asar. 45-b.

⁸ O'sha asar. 45-b.

⁹ O'sha asar. 45-b.

¹⁰ Сайфи С. (Сухайил ва Гулдурсун. Т. . Фафур Ғулом нашриёти, 1986:54).

¹¹ O'sha asar. 45-b.

¹² Навоийнинг нигоҳи ... (Т.: Фафур Ғулом нашриёти, 1986:144-145).

*Jamolingni ko 'rib gul g'uncha bo 'lg'ay,
Tor og 'zingdek gul g'uncha bo 'lg'ay*¹³.

Bu tasvir "Latofatnoma"ning boshqa bir o'rnida ham quyidagicha yozilgan:

*Sahar gul g'uncha kim olamga kuldi,
Tor og 'zingni ko 'rib gul g'uncha bo 'ldi*¹⁴.

Atoiy ijodida esa shu kabi tasvirlashni ayni nomanavis ijodkorlar ijodi ta'sirida yaratilgan deyish o'rnlidir.

*Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyotdin anjumanda*¹⁵.

Keyingi davr ijodkorlarining ijodida ham o'z ta'siriga ega bo'lib, ijodkorlar ijodidan o'rin olganligini kuzatish mumkin. Usmon Nosir o'z she'rlarida shunday baholagan:

*She 'rim, yana o 'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang gullar sharmanda,
Bir men emas, hayot shahtisan,
Jonim kabi yashaysan manda*¹⁶.

Yuqorida keltirilgan har bir ijodkor ijodi o'xshatishlarga asoslangan bo'lishiga qaramasdan yaratilgan davr nuqtayi nazaridan va badiiy-uslubiy bo'yoqdorlik jihatidan o'ziga xos shaklda ishlangan deyish mumkin.

Shuningdek, Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining har bir nomasi so'ngida masnaviy janri berilgan bo'lib, ijodkor masnaviyda shunday satrlar keltirib o'tgan:

*Sabrdin yaxshi yo 'qdur pesha qilsam,
Bu yo 'lda sabr yo 'q andisha qilsam*¹⁷.

Xo'jandiy "Latofatnoma"sida esa quyidagicha shunga o'xshash misralarni ko'rishimiz mumkin:

*Taolloh bu ne husn-u jamol ul,
Sabr qilmoq jamolingdin maholl ul*¹⁸.

Ijodkor ijodida o'zidan oldin yashab ijod qilgan ijodkorlar ijodidan bahra olgan tarzda ijod qilish yuqori baholangan bo'lib, ba'zi o'rinlarda uning ijodi ta'sirida keying davr adabiyotida ham Xo'jandiy ijodi ta'siridan foydalanganlik o'rinlarni ko'rish mumkin. Bunga "Latofatnoma"da keltirilgan:

*Qachon o 'srub qizorsa ol yanoqin,
Boshim yerga qo 'yib o 'psam ayoqin*¹⁹.

Atoiyda esa:

Ayog 'in kanda bo 'lsa, boshim anda.

Mumtoz adabiyotda yor qaddini Sanubar (tik o'sadigan daraxt)ga qiyoslash an'ana hisoblanadi. Xorazmiy "Muhabbatnoma" asarida ham shu kabi o'xshatishlar keltirilgan:

*Bo 'ying sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilgan kishilarga vafo qil*²⁰.

- deyilgan bo'lsa, Xo'jandiy:

*Ayo, qaddi Sanubar, engi lola,
Nigori mahvashi mushkin kulola*²¹.

¹³ Is'hoqov Y. (So'z san'ati so'zlari. T.: 2014: 138)

¹⁴ O'sha asar. 55-b.

¹⁵ Навоийнинг нигоҳи тушган... (Т.: Ғафур Ғулом нашриёти 1986:216)

¹⁶ O'sha asar. 52-b

¹⁸ O'sha asar. 51-b.

¹⁹ O'sha asar. 53-b.

²⁰ O'sha asar. 48-b.

²¹ O'sha asar. 54-b.

- deya yor qaddi sanubarga mengzaladi.

Shuningdek, nomanavis ijodkorlar asarlaridan noma janri talablari darajasida baholangan Xorazmiy “Muhabbatnoma”si, Xo’jandiy “Latofatnoma”si va shu kabi ijodkorlar asarlarini badiiy san’atlarga boyligi va badiiy jihatdan o’ziga xosligi bilan ahamiyatlidir. Xo’jandiy o’z asarini garchi Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asariga javob tarzida yozgan, undagi tashbeh va tasvirlardan foydalangan bo’lsa-da, bu o’xshatishlarni yanada boyitdi. Vaqlar o’tishi bilan “Latofatnoma”da qo’llangan badiiy tasviriy vositalar, ayrim voqea-hodisalar keyingi nomanavis ijodkorlarning asarlaridan ham o’rin oldi.

Bu kabi mumtoz asarlarda o’z davridagi adabiy, ijtimoiy, siyosiy hayotni tasvirlar ekan, o’sha davr muhitidan kelib chiqqan holda nomanavis ijodkorlar o’z asarlarida ishq va muhabbat mavzusi doirasida komillik jihatlarini yoritib berish kabi fazilatlar keltirib o’tilgan. Ayni shu o’rinda XI asrda yashab ijod qilgan arman yozuvchisi Grigor Narikatsiyning “Musibatnoma” kitobida shunday satrlar bor:

Bu kitob jism-u fig’onimdur mening,

Bu kitob jon-u jahonimdur mening.

Mazkur jumlagi tayangan holda yuqorida keltirib o’tilgan barcha asarlarni ham shunday baholash mumkin. Bu kabi asarlar har doim komillik ruhida tarbiyalash uchun muhim bo’lib, badiiy jihatdan yoritilganda yangi fikr va g’oyalarni yuzaga kelishi uchun asosiy manbaa sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zlari. T.: 2014.
- 2.Muminova D.(Nomanavislik Samarqand. 2023.)
- 3.Муборак м.,.(Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент: 1987).
- 4 Навоийнинг н ... (Т.:. Ғафур Ғулом нашриёти,1986).
- 5 Сайфи С,(.Сухайил ва Гулдурсун. _Т. . Ғафур Ғулом нашриёти,1986:986).
- 6(..Хоразмий. Муҳаббатнома. – Тошкент: 1959).